



Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari orasida ustunlik mavqeini egallaydi.

Bu murakkab ko‘p qirrali mexanizm bo‘lib, savdo va transportdan tortib ta‘lim va sug‘urta xizmatlarigacha bo‘lgan keng doiradagi faoliyatni qamrab oluvchi zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Restoran va mehmonxona, sartaroshxona va ta’mirlash ustaxonalari, sport klublari va ta‘lim muassasalari, sayyoqlik kompaniyalari, auditorlik va konsalting kompaniyalari, banklar, poliklinikalar, sanatoriylar, dam olish uylari - bularning barchasi xizmatlar sohasiga taalluqlidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo‘jalik hududlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste’molini oshirishni ta’minlaydi.

2020-yil 1-mart holatiga viloyatda jami faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilot va korxonalar soni 17,7 ming birligga teng bo‘ldi, ulardan 10,3 ming birligi xizmatlar sohasiga jalb qilingan, bu ularning umumiy sonining 58,6 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-mart holatiga
korxona va tashkilotlarning umumiy sonida
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-mart holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,5 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,9 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-mart holatiga, xizmatlar sohasida 9,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari (34,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (11,0 %), tashish va saqlash (5,8 %), axborot va aloqa (1,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (2,3 %), boshqa turlar – 44,7 % tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning sonini taqqoslasak, 2020-yil 1-mart holatiga kelib u, 1,3 ming birlikga, o'sish sur'ati 114,5 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi

1309 birlik


Xizmatlar sohasiga tegishli yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

319 birlik

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sishi

14,5 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 728,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 160,8 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 13,8 % ni tashkil etdi.




Hajmi 160,8 mlrd.
so'mga oshdi




Xizmatlari hajmi
728,5 mlrd. so'm

Iqtisodiyot tarmoqlarida xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan alohida xizmat turlarining ko'rsatkichlari



O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 108,7 ming so'mga oshdi va 532,8 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish 11,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



532,8 ming so'm

O'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



108,7 ming so'mga oshdi

O'sish sur'ati




111,5 %

Xizmatlar faoliyatining xilma xilligi, shuningdek, xizmatlar sohasidagi turli faoliyatlar o'rtaSIDAGI o'zaro munosabatlar ushbu sohaning jadal rivojlanishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi.


Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rileyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

Deyarli barcha hududlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida moliyaviy va transport xizmatlari, savdo, aloqa va axborotlashtirish kabi xizmatlarning ulushini ortishi ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (143,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (133,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,7 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (117,8 %) qayd etildi.



**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining osish sur'atlari, % da**



**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mldr. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	728,5	113,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	36,8	117,8
Moliyaviy xizmatlar	184,1	143,1
Transport xizmatlari	113,1	101,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	109,9	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	19,9	105,6
Savdo xizmatlari	225,7	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20,6	105,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	28,4	121,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,7	133,0
Ijara xizmatlari	18,1	115,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	19,0	104,1
Shaxsiy xizmatlar	22,6	109,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,8	87,2
Boshqa xizmatlar	19,7	100,0

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da



Eng yuqori ulush savdo xizmatlarida (31,0 %), moliyaviy xizmatlar (25,3 %), transport xizmatlarida (15,5 %), uncha yuqori bo'lмаган ulush aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (3,9 %) kuzatildi.


Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'gri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2020 yil fevral oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 44,7 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 55,3 % ni tashkil etdi.


**2020-yil yanvar-fevral oylarida tashish turlari bo'yicha
avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, % da**



Savdo tarixiy jarayonning eng qudratli omillaridan biri hisoblanadi. Tarixda bunday davr yo'qlik, ijtimoiy hayotga uning ta'siri kamroq yoki ko'proq darajada ko'rsatilmagan payti bo'limgan, mamlakat ichida oddiy ayirboshlash bilan boshlanib va butun dunyo bo'yicha tarqalgan murakkab tijorat operatsiyalari tarmog'i bilan yakunlanadi.

Har xil turdag'i savdo munosabatlari doimo ijtimoiy hayotning turli jihatlariga javob beradi.

Savdo xizmatlari



2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,0 % ni tashkil etib, bu 225,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 82,4 % ga tog'ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,2 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)


Chakana savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Bugungi kunda yetakchi o'rirlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 184,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 143,1 foizga o'sdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,1 % ni tashkil etadi.



Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 36,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sishi 17,8 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'Idoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 98,9 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiylagi hajmida nashriyot xizmatlari - 0,4 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,5 % hamda axborot sohasidagi xizmatlar - 0,2 % ni tashkil etadi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:


uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2020-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 28,4 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 21,7 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etdi, hajmi esa 2,8 mlrd. so'mga oshdi va 19,9 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 88,3 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Ushbu turdagи xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Sog'lijni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 11,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 133,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi va yuqori sifati, odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumдорligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, bo'sh vaqtini ko'payishiga imkon beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: 71-230-83-57
72-222-79-69